



BOLALARDA BRONXIT KASALLIGINING RIVOJLANISH XAVF OMILLARI VA ETIOLOGIK STRUKTURASI

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi 3-bosqich talabalari

Vahobjonova Guljalon

Sotivoldiyeva Nilufar

O'rino boyeva Shaxrizoda

Maqolaning qisqacha mazmuni: Ushbu maqola davomida bronxit, ularning kelib chiqish sabablari, o'tkir va surunkali bronxit haqida, bolalarda bronxit kasaligini kelib chiqishiga xavf omillari va xavf omilini oshishiga bo'lgan sabablar, bronxitning kasallik belgilari va kasallikni davolashni boshlashdagi asosiy mezonlar, tekshiruvlar (auskultatsiya, perkussiya, rentgenologik), o'tkir bronxit belgilari, birlamchi bronxit, bemor xonasiga qo'yilgan talablar

Kalit so'zlar : Bronxit, o'tkir bronxit, surunkali bronxit, xavf omillari, balg'am

Bronxit – nafas yo'llari patologiyalari ichida eng ko'p tarqalgan o'tkir kasallik. Bronxit har qanday yoshda uchraydi. Ammo, bolalarda, ayniqsa kichik yoshdagi bolalarda ko'proq uchraydi va kattalarga qaraganda og'irroq kechadi. Bronxit – bronxlar shilliq qavatining yallig'lanishidir. Bu kasallik ko'proq bolalarda uchrashiga sabab bolalarning immun tizimi sust bo'lishi va nafas a'zolarining to'liq rivojlanmaganligidir. Statistika bo'yicha har yili 1000 ta bolaning 200 tasi bronxit kasalligiga chalinadi. Ko'proq 5 yoshgacha bo'lgan bolalar kasallanadi. Bronxitlar qish mavsumida ko'payadi. U ba'zi bolalar infeksiya kasalliklarini, jumladan qizamiq, ko'k yo'talni odatdagi ko'rinishi hisoblanadi.

Bronxit - o'pkadagi katta nafas olish naychalarining (bronxlar) yallig'lanishi. Kasallik qisqa muddatli (o'tkir) yoki uzoq muddatli (surunkali) bo'lishi mumkin. O'tkir bronxit belgilari ko'pincha tez rivojlanadi va uzoq davom etmaydi. Aksariyat holatlar yengildir.

Bronxitning asosiy simptomi yo'tal bo'lib kasallik boshlanishida quruq, bazan davomli ko'krakda og'riq bilan kechadi. Ikkinci haftalarda yo'tal yumshab bemor shilimshiq, shilliq-yiringli balg'am ajrata boshlaydi.

Perkussiyada tovush o'zgarmagan bo'ladi, ba'zan o'pkani burtishida karopkaga oid tovush eshitiladi. Auskultatsiyada quruq yoki yirik va o'rta kalibrli nam xirillash eshitiladi. Agar patologik jarayonga mayda bronx va bronxiolalar ham qo'shsa, mayda pufakchali xirillashlar paydo bo'ladi, ular soni



yo'talganda ko'payadi.Bronxit asosan ikki tomonlama bazan bir tomonlama ham bo'lishi mumkin.

Rentgenologik o'zgarishlar bo'lmasligi mumkin ,ammo ko'pincha erta yoshdagi bolalarda bronx -qon tomirlar ko'rinishini bir meyorda kuchayishi kuzatiladi

BRONXIT SABABLARI

Bolalarda nafas olish a'zolari kattalarniki kabi yaxshi shakllanmagan bo'ladi. Aynan mana shu xususiyat bolalarda bronxit kasalligining ko'p uchrashiga sabab bo'ladi. Bolalarda nafas a'zolari kamchiliklariga quyidagilar kiradi:

- Nafas yo'llarining kaltaligi – infeksiyaning kirishini osonlashtiradi;
- O'pka hajmining kichikligi;
- Nafas mushaklarining kuchsizligi – balg'am ko'chirishda yo'talishning sustligi;
- Shilliq qavatlarda yetarlicha immunoglobulinlar bo'lmasligi;
- Tonzillit va adenoidlarga moyillik yuqoriligi.
- Bronxitlar ko'p hollarda ikkilamchi kasallik sifatida namoyon bo'ladi.

Bu patologiya yuqori nafas yo'llari kasalliklari asoratidir – faringit, laringit,tonzillit kabi. Nafas yo'llarining yuqori qismidagi bakteriya yoki viruslarning pastki qismlarga o'tishi natijasida kasallik kelib chiqadi. Shifokor mutaxassislar ta'kidlashicha, birlamchi bronxit, ya'ni infeksiyaning to'g'ridan-to'g'ri bronxlarga ta'siri kam hollarda uchraydi. Bronxitlar kelib chiqishida – gripp, paragripp, rinoavirus,adenoviruslarning o'rni katta. Bolalarda bronxit kelib chiqish xavfini oshiruvchi omillar quyidagilardir:

- Immunitetning sustligi;
- Sovuq qotish;
- Haroratning birdan o'zgarishi;
- Juda quruq havo, ayniqsa isitgichlar ishlab turgan xona havosidan nafas olish;
- Nafas yo'llari shilliq qavatining qurib qolishi;
- Avitaminoz;

2 yoshli bolada bronxit o'spirinlarga qaraganda ancha tez-tez aniqlanadi.

Yosh bolalarda termoregulyatsiya jarayonlari nomukammal, shuning uchun ob-havoga mos bo'lмаган киymilar tezda gipotermiyaga olib keladi. Shuni esda tutish kerakki, chaqaloqni haddan tashqari o'rash ham xavfli. U terlaydi va ho'l terini puflab, bronxda yallig'lanishni keltirib chiqaradi.

Bronxitning qanday turlari mavjud?

Bronxit o'tkir yoki surunkali bo'lishi mumkin:

O'tkir bronxit tezda boshlanadi va jiddiy alomatlarga olib kelishi mumkin. Ammo bu bir necha haftadan ortiq davom etmaydi. Viruslar bronxitning ko'p holatlarini keltirib chiqaradi. Ko'p turli xil viruslar nafas yo'llarini yuqtirishi va bronxial naychalarga hujum qilishi mumkin. Ba'zi bakteriyalar (stafilakokk, streptakokk, pnevmakokk) tomonidan infektsiya ham o'tkir bronxitga olib kelishi mumkin. Ko'p odamlar hayotining bir davrida o'tkir bronxitga ega.

Bolalarda surunkali bronxit kam uchraydi. U yengildan og'irgacha bo'lishi mumkin va uzoqroq davom etadi (bir necha oydan yillargacha). Surunkali bronxitning eng keng tarqalgan sababi chekishdir. Bronxial naychalar yallig'langan va bezovta bo'lib qoladi va vaqt o'tishi bilan ko'p miqdorda shilimshiq hosil qiladi. Surunkali bronxit bilan og'rigan odamlarda pnevmoniya kabi havo yo'llari va o'pkaning bakterial infektsiyalari xavfi yuqori.

O'tkir bronxit odatda bakteriya yoki virus kabi yuqumli agentlar tomonidan qo'zg'atiladi. Bu, shuningdek, fizik yoki kimyoviy vositalar minus sabab bo'lishi mumkin; changlar, allergenlar, kuchli tutunlar va kimyoviy tozalash aralashmalar yoki tamaki tutuni.

Bolalarda bronxitning eng keng tarqalgan sababi virusdir, garchi 6 yoshdan oshgan bolalarda bakteriyalar sabab bo'lishi mumkin. O'tkir bronxit odatda yengil holatdir. O'tkir bronxit shamollash yoki yuqori nafas yo'llarining boshqa virusli infektsiyalaridan keyin paydo bo'lishi mumkin. Surunkali sinusit, allergiya yoki kattalashgan bodomsimon bezlar va adenoidlar bo'lgan bolalarda ham paydo bo'lishi mumkin. Pnevmoniya bronxitdan keyin paydo bo'lishi mumkin bo'lgan asoratdir.

O'tkir bronxitning belgilari

- Burun oqishi, odatda yo'tal boshlanishidan oldin
- Bezovtalik (umumiy tanadagi noqulaylik yoki o'zini yaxshi his qilmaslik)
- Sovuq
- Yengil isitma
- Orqa va mushak og'rig'i
- Tomoq og'rig'i

Kasallikning dastlabki bosqichlarida bolalarda quruq, samarasiz yo'tal bo'lishi mumkin, keyinchalik u shilimshiq bilan to'lgan yo'talga aylanadi. Yosh bolalarda yo'tal bilan bir oz quşish yoki og'iz bo'shilig'i bo'lishi mumkin. Bronxit belgilari odatda 7 dan 14 kungacha davom etadi, ammo uch-to'rt haftagacha davom etishi mumkin.

Bolalarda o'tkir bronxit davosida avvalo shilliq qavatlar yallig'lanishi va yo'talni bartaraf etishi kerak. Shuni ham unutmaslik zarur – yo'tal organizmning himoya mexanizmi hisoblanadi, yo'tal orqali organizm yot jismlardan xalos



bo'lishga harakat qiladi (virus, bakteriya, allergen yoki toksik modda bo'lishidan qat'iy nazar). Shu sababli shilliq qavatlarda ko'plab shilliq ishlab chiqariladi va bu balg'am ko'rinishida organizmdan chiqarilib yuboriladi. Yagona muammo shu balg'amning juda yopishqoqligi va ko'chishi qiyinligida, ayniqsa, kichik yoshdagi bolalar o'pkasi va bronxlari kuchsiz bo'lganligi sababli yo'tal bilan balg'amni ajrata olmaydilar

Bronxitni davolashda birinchi navbatda suyuqlik ichishni ko'paytirish kerak – odatdagи hajmdan 2 marotaba ko'proq suyuqlik ichish tavsiya etiladi, chunki tana harorati ko'tarilganda organizm suvsizlanadi. Bundan tashqari, suyuqliklar organizmdan toksinlar chiqib ketishini ta'minlaydi. Bolalarda bronxit kuzatilayotgan bo'lsa – ular yotoq tartibiga riosa etishlari zarur, ammo qat'iy tartibda emas. Chunki bir holatda uzoq muddat bo'lish o'pkada balg'am turib qolishi va dimlanishiga sabab bo'ladi. Bolakaylar vaqt-vaqt bilan harakatda bo'lishlari tavsiya etiladi. Agar bolakay ko'krak yoshida bo'lsa, uning holatini o'zgartirib turish kifoya. Bemor umumiylahvoli yaxshilansa toza havoda biroz sayr qilish ham ancha foydali. Yana bir muhim jihat, bola joylashgan xona harorati – juda past yoki juda yuqori bo'lmasisligi kerak. Optimal diapozon +18 C va +22 C hisoblanadi. Juda yuqori harorati havoni quritib yuboradi va namlik kamayadi, bu esa bronxlarda yallig'lanish jarayonini kuchaytiradi. Xonaning optimal namligi 50-70 % hisoblanadi, shu sababli xonani tez-tez shamollatib turish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.<https://www.urmc.rochester.edu/encyclopedia/content.aspx?ContentTypeID=90&ContentID=P02930>
2. <https://uz-12975.studiovladimirs.cz/bronhit-u-detey-116c16>
- 3.<https://www.mayoclinic.org/diseases-conditions/bronchiolitis/symptoms-causes/syc-20351565>
- 4.<https://www.cincinnatichildrens.org/>
- 5.<https://dmclinic.uz/bolalarda-o%CA%BBtkir-bronxit-davosi/>
- 6.BKP.Mazurin darsligi